# NAMANGAN VILOYATINING O‘RTA MAXSUS TA’LIM TIZIMI ISLOHOTLARI

**Talabboyeva Mohinabonu**
*Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs*

**Annotasiya:** *Namangan viloyatining ta’lim tizimidagi islohotlar va ularning ta’lim tizimiga ta’siri va ko‘rsatkichlari haqida keng yoritilib o‘tilgan*
**Kalit so‘zlar:** *maktab, kollej, litsey.*

O‘rta maxsus ta’lim akademik litseylarda to‘qqiz yillik tayanch o‘rta ta’lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasbhunarga va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lovshartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi.O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

I.Professional ta’lim
Boshlang‘ich
professional
ta’lim
2.O‘rta maxsus
professional
ta’lim
O‘rta professional

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari tizimi –boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional, kasb-hunar ta’limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o‘quvmetodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar,texnikumlardan iborat bo‘ladi.Akademik litsey – uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi va Namangan viloyatining barcha

fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.Professional ta'lim–ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan boshlangʻich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.Kollejlar — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oʻrta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan oʻrta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Statistik koʻrsatkichlarga

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 1.Haydarov, Murodulla „Namagan viloyat" OʻzME. N-harfi[sayt ishlamaydi] Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. „В составе города Намангана образуется Давлатабадский район 08/09/2020". 2021-yil 29-dekabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2021-yil 29-dekabr.